

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY MADANIYATNI SAQLASH
MASALARI

Maxammadjonova Muxlisa Shuxratjon qizi

Talaba, Uchinchi ingliz fakulteti, O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti

Mahammadjonovamuhlisa615@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada globalizatsiya sharoitida milliy madaniyatni saqlash masalalari yoritiladi. Global jarayonlar ommaviy madaniyat va axborot oqimi orqali milliy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatmoqda. Maqolada til, urf-odat va an'analarni asrashda ta'lim hamda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy o'zlikni saqlab qolish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Globalizatsiya, milliy madaniyat, milliy o'zlik, madaniy qadriyatlar, ommaviy madaniyat, ta'lim.

ISSUES OF PRESERVING NATIONAL CULTURE IN THE CONTEXT OF
GLOBALIZATION

Maxammadjonova Mukhlisa Shukhratjon qizi

Student, Third English faculty, Uzbekistan State University of World Languages

Mahammadjonovamuhlisa615@gmail.com

Abstract: This article examines the issues of preserving national culture in the context of globalization. Global processes influence national values through mass culture and information flows. The role of education, language, and traditions in maintaining national identity is analyzed. The article also discusses ways to preserve national identity in the modern world.

Keywords: Globalization, national culture, national identity, cultural values, mass culture, education.

KIRISH

Globalizatsiya jarayoni bugungi kunda jahon miqyosida jadal rivojlanish va taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon turli mamlakatlar va millatlar o'rtasidagi hamkorlik, axborot almashinuvi hamda o'zaro ta'sirlarni yanada kuchaytirmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida turli xalqlarning madaniyati, qadriyatlari va turmush tarzi bir-biriga yaqinlashib, global madaniy makon shakllanmoqda. Shu bilan birga, globalizatsiya ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirar ekan, ayrim hollarda mahalliy an'analar va milliy madaniyatlarning zaiflashishiga

ham sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, kichik millatlar hamda rivojlanayotgan davlatlar uchun milliy o'zlikni yo'qotish xavfi dolzarb muammoga aylanmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston globalizatsiya sharoitida o'zining madaniy o'ziga xosligi, milliy tili va diniy qadriyatlarini asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratmoqda. Mamlakatning boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosi milliy o'zlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni saqlash va rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan urf-odatlar, milliy kiyimlari, musiqa va raqs san'ati, an'anaviy taomlari global jarayonlar ta'sirida muayyan o'zgarishlarga uchrashi mumkin, biroq ularni asrab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekistonda milliy madaniy merosni muhofaza qilish va targ'ib etish yo'nalishida keng ko'lamli tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jumladan, turli millatlar o'rtasida madaniy muloqotni rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlash hamda milliy qadriyatlarni himoya qilishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, Buxoro, Samarqand va Xiva kabi qadimiy shaharlar hamda ulardagi me'moriy yodgorliklarni asrab-avaylashga alohida e'tibor berilib, ular xalqaro miqyosda keng e'tirof etilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda globallashuv jarayonini izohlashga qaratilgan turli ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar shakllanib, ularda mazkur jarayonning xalqlar va davlatlar taraqqiyotiga ta'siri, uning oqibatlari hamda istiqbollari tahlil qilinmoqda. Ushbu masala davlat arboblari, siyosatchilar, faylasuflar, jamiyatshunos olimlar va ommaviy axborot vositalari tomonidan turlicha talqin etilmoqda.

Hozirgi zamon insoniyat tarixida tub burilishlar davri bo'lib, keskin va murakkab o'zgarishlar bilan tavsiflanadi. Bu holat O'zbekiston Prezidenti asarlarida ham alohida ta'kidlanib, bugungi davr avvalgi tarixiy bosqichlardan tubdan farq qilishi qayd etiladi. Xususan, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida globallashuv fenomenining hozirgi kunda ilmiy-falsafiy va hayotiy tushuncha sifatida keng mazmunga ega ekanini, u mutlaqo yangi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy muhitni shakllantirayotganini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, milliy va mintaqaviy muammolarning global muammolar darajasiga ko'tarilayotgani ham ushbu jarayonning muhim jihatlaridan biri sifatida ko'rsatiladi.

Globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlari barqaror taraqqiyot yo'lida o'z o'rnini belgilab borar ekan, bunda nafaqat tabiiy va iqtisodiy omillar, balki inson omili ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalash, ular uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va intellektual salohiyatidan samarali foydalanish dolzarb masalaga aylanmoqda. Yoshlar jamiyatning eng faol qatlami bo'lib, globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy ta'siri avvalo ular hayotida namoyon bo'ladi. Aynan yoshlar iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan ko'proq zarar ko'rishi, turli mojarolar markaziga tushib qolish ehtimoli yuqori bo'lgan qatlam hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur hujjatda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar sanab o'tilib, huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonining yetarli darajada tizimli tashkil etilmaganligi qayd etiladi. Shuningdek, yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga qarshi huquqiy immunitetni shakllantirish, milliy qadriyatlarga sadoqat va qonunlarga hurmat ruhini mustahkamlash masalalariga kompleks yondashuv yetishmayotgani ko'rsatib o'tiladi.

Davlat rahbari o'z nutqlarida jamiyat taraqqiyoti har bir fuqaroning faol fuqarolik pozitsiyasiga bog'liq ekanini, shaxsiy manfaatlar jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yilmasligi lozimligini qayta-qayta ta'kidlab kelmoqdalar.

NATIJA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globalizatsiya sharoitida madaniy merosni saqlash va himoya qilish milliy o'zlikni asrashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan davlat siyosati madaniy merosni nafaqat saqlab qolish, balki uni zamonaviy sharoitlarga mos ravishda rivojlantirishga qaratilgan. Buxoro va Samarqand kabi tarixiy shaharlarda olib borilayotgan restavratsiya va muhofaza ishlari milliy madaniyatni asrash bilan birga, turizm sohasining rivojlanishiga ham xizmat qilmoqda.

Shuningdek, milliy musiqa, raqs va san'at an'analarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar o'zbek madaniyatining xalqaro miqyosda tanilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamli platformalardan foydalanish orqali o'zbek madaniy merosini dunyo miqyosida targ'ib etish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ushbu jarayonlar milliy madaniyatni global maydonda saqlash va mustahkamlashda muhim natijalarni bermoqda.

MUHOKAMA

Olib borilgan tadqiqot natijalari globallashtirish jarayonining milliy madaniyatga ta'siri murakkab va ko'p qirrali ekanini ko'rsatadi. Ilmiy adabiyotlarda globallashtirish bir tomondan taraqqiyot, ochiqlik va madaniy almashinuv imkoniyatlarini kengaytiruvchi omil sifatida talqin etilsa, ikkinchi tomondan milliy madaniyat va an'analar uchun muayyan xavf-xatarlarni yuzaga keltiruvchi jarayon sifatida baholanadi. Jumladan, I.A. Karimov o'z asarlarida globallashtirish sharoitida milliy ma'naviyatni mustahkamlash zarurligini alohida ta'kidlab, ma'naviy bo'shliq jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, O'zbekistonda globallashtirish jarayonlariga nisbatan muvozanatli yondashuv shakllanmoqda. Ya'ni, xalqaro integratsiya va zamonaviy rivojlanish jarayonlaridan chetda qolmasdan, milliy madaniyat, til va qadriyatlarni saqlashga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu holat bir qator ilmiy manbalarda ilgari surilgan "milliy va global qadriyatlar uyg'unligi" konsepsiyasiga mos keladi. Tadqiqotchilar fikriga

ko'ra, globallashuv sharoitida madaniyatni to'liq yopiq holda saqlash mumkin emas, biroq uni ongli ravishda himoya qilish va rivojlantirish mumkin.

Umuman olganda, muhokama shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonini faqat salbiy yoki faqat ijobiy hodisa sifatida baholash to'g'ri emas. Asosiy masala ushbu jarayon sharoitida milliy madaniyatni ongli ravishda saqlash, uni zamonaviy rivojlanish bilan uyg'unlashtirish va kelajak avlodlarga yetkazishdan iboratdir. Tadqiqot natijalari va adabiyotlar tahlili ushbu yondashuvning ilmiy va amaliy jihatdan asosli ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, globalizatsiya sharoitida milliy madaniyatni saqlash masalasi jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Global jarayonlar madaniy almashinuv va ochiqlikni kuchaytirishi bilan birga, milliy qadriyatlarning zaiflashishiga ham olib kelishi mumkin. Shu sababli milliy madaniyatni asrash va rivojlantirish globallashuv davrida dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Tadqiqot natijalari O'zbekistonda milliy madaniyatni saqlash borasida izchil va tizimli yondashuv shakllanayotganini ko'rsatadi. Milliy til, urf-odatlar, an'analar va madaniy merosni asrab-avaylashga qaratilgan chora-tadbirlar milliy o'zlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ta'lim va ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarni targ'ib etish globallashuvning salbiy ta'sirlarini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv jarayonida milliy madaniyatni saqlash faqat muhofaza qilish bilan cheklanmasdan, uni zamonaviy rivojlanish bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Ushbu yondashuv milliy madaniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov, I.A. (2008) "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: Ma'naviyat.
2. Mirziyoyev, Sh.M. (2017) "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent: O'zbekiston.
3. Mirziyoyev, Sh.M. (2020) "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". Toshkent: O'zbekiston.
4. UNESCO (2013) "Culture and Development". Paris: UNESCO Publishing.